



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 103 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdam o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafoyev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddinov Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	



BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi

Millat Umidi universitetining 3-bosqich talabasi

E-mail: shodiyaxonabduhamidova@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich

TDIU, Biznes boshqaruvi kefedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada biznes jarayonlarini samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlaridan foydalanishning afzalliklari ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. ERP tizimlari korxona bo'limlari o'rtasida integratsiyalashgan axborot almashinuvi, resurslardan optimal foydalanish, real vaqt rejimida monitoring, moliyaviy va operatsion hisob-kitoblarni avtomatlashtirish orqali korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi yoritiladi. Tadqiqot davomida zamonaviy ERP platformalarining funksional imkoniyatlari, ularning raqamli transformatsiya jarayonidagi roli, menejment qarorlarini tez va aniq qabul qilishga ta'siri ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ERP tizimining korxona raqobatbardoshligini kuchaytirish, xarajatlarni qisqartirish, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini optimallashtirishdagi ustunliklari ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ERP tizimi, biznes jarayonlari, raqamli boshqaruv, integratsiya, resurslarni optimallashtirish, avtomatlashtirish, axborot tizimi, logistika, moliyaviy boshqaruv, samaradorlik.

Abstract: This article analyzes the advantages of using ERP (Enterprise Resource Planning) systems in the effective management of business processes from a scientific, theoretical, and practical perspective. It is highlighted that ERP systems increase the efficiency of enterprises through integrated information exchange between enterprise departments, optimal use of resources, real-time monitoring, and automation of financial and operational calculations. The study examines the functional capabilities of modern ERP platforms, their role in the digital transformation process, and their impact on making quick and accurate management decisions. The advantages of ERP systems in enhancing enterprise competitiveness, reducing costs, and optimizing production and logistics processes are also substantiated based on scientific sources.

Key words: ERP system, business processes, digital management, integration, resource optimization, automation, information system, logistics, financial management, efficiency.

Аннотация: В данной статье анализируются преимущества использования ERP-систем (Enterprise Resource Planning) в эффективном управлении бизнес-процессами с научной, теоретической и практической точки зрения. Отмечено, что ERP-системы способствуют повышению эффективности деятельности предприятий за счет интегрированного обмена информацией между подразделениями предприятия, оптимального использования ресурсов, мониторинга в режиме реального времени и автоматизации финансовых и операционных расчетов. В исследовании рассмотрены функциональные возможности современных ERP-платформ, их роль в процессе цифровой трансформации и влияние на принятие быстрых и точных управленческих решений. Также на основе научных источников обоснованы преимущества ERP-системы в повышении конкурентоспособности предприятия, снижении затрат и оптимизации производственных и логистических процессов.

Ключевые слова: ERP-система, бизнес-процессы, цифровое управление, интеграция, оптимизация ресурсов, автоматизация, информационная система, логистика, финансовое управление, эффективность.



KIRISH

Bugungi globallashtirish jarayonida biznes subyektlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, korxona faoliyatini kompleks boshqarishga mo'ljallangan ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari zamonaviy korxonalar faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. ERP tizimi korxonaning moliya, ta'minot, ishlab chiqarish, marketing, logistika va kadrlar bo'limlarini yagona axborot platformasi asosida integratsiyalash orqali boshqaruv jarayonlarining aniqligi va tezkorligini oshiradi.

Ushbu bo'limda ERP tizimlarining shakllanishi, ularning biznes boshqaruvida tutgan o'rni, korxonalarda resurslardan optimal foydalanish hamda operatsion jarayonlarni avtomatlashtirishdagi ustunliklari yoritiladi. Shuningdek, ERP tizimlarining joriy etilishi korxonalar uchun qanday strategik ustunliklar yaratishi, qaror qabul qilish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi va raqamli transformatsiya jarayonida tutgan o'rni ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy olimlardan J. Davenport 2021-yilda ERP tizimlari korxona jarayonlari bo'yicha yagona axborot maydonini yaratishi orqali boshqaruvning aniqligi va shaffofligini oshirishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, raqamlashtirilgan boshqaruv tizimi qaror qabul qilish jarayonida real vaqt ma'lumotlaridan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, M. Sumner 2022-yilda ERP tizimining integratsiyalashgan tabiati korxonaning moliya, logistika va ta'minot bo'limlari o'rtasidagi ma'lumot oqimini tezlashtirishi, bu esa operatsion samaradorlikni oshirishini qayd etadi. Yana bir tadqiqotchi L. Shaul 2023-yilda esa ERP tizimlarining raqobatbardoshlikni mustahkamlashga ta'sirini o'rganib, ayniqsa kichik va o'rta korxonalar uchun xarajatlarni qisqartirish va jarayonlarni standartlashtirish muhimligini ko'rsatadi.

A. Jo'rayev 2021-yilda ERP tizimining mahalliy korxonalarda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim vosita ekanini ta'kidlab, uning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rgangan. Shuningdek, D. Qodirov 2022-yilda ERP platformalari orqali ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va monitoring tizimini rivojlantirish korxona boshqaruvining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashini ko'rsatib o'tadi. Yana bir mahalliy tadqiqotchi S. Karimova 2023-yilda esa ERP tizimlarining logistika jarayonlarini avtomatlashtirishdagi roli, ta'minot zanjiri boshqaruvida kechikishlar va xatoliklarni minimallashtirishdagi afzalliklari haqida ilmiy xulosalar beradi. Unga ko'ra, ERP tizimlari nafaqat jarayonlarni yaxlit boshqaradi, balki korxonaning strategik rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tahliliy-taqqoslama usuli, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, statistik tahlil, induksiya va deduksiya usullari, shuningdek, empirik kuzatuv va modellashtirish metodologik usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biznesni boshqarishda ERP tizimidan foydalanishning afzalliklari:


- Korxona bo'limlari o'rtasida integratsiyalashgan boshqaruvni ta'minlaydi. ERP tizimi moliya, ishlab chiqarish, logistika, marketing va kadrlar bo'limlarini yagona axborot platformasi asosida birlashtirib, jarayonlarni uyg'un, tezkor va aniq boshqarishga yordam beradi.
- Qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va aniqligini oshiradi – real vaqt rejimidagi ma'lumotlar rahbarlarga strategik va operatsion qarorlarni aniq, ishonchli va tezkor qabul qilish imkonini beradi.
- Resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi – moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni avtomatik rejalashtirish orqali keraksiz xarajatlarni kamaytiradi va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtiradi.
- Xarajatlarni qisqartiradi va jarayonlarni avtomatlashtiradi – qo'lda bajariladigan jarayonlar kamayadi, xatoliklar minimallashtiriladi, hujjatlar aylanishi tezlashadi, natijada umumiy operatsion xarajatlar pasayadi.
- Mijozlar bilan ishlash sifatini yaxshilaydi – buyurtmalarni qayta ishlash, yetkazib berish muddatlari, xizmat ko'rsatish darajasi aniq hisoblanadi, bu esa mijozlar mamnunligini oshiradi.
- Korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytiradi – ERP tizimi asosida raqamlashtirilgan boshqaruv korxonaga bozor o'zgarishlariga moslashish, tezkor rejalashtirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini yaratadi.



Main ERP Users



TRUELIST



Source: Finances Online

1-rasm. 2025-yilda ERP dasturiy ta'minoti qo'llaniladigan sohalari

(Manba: <https://truelist.co/blog/erp-statistics/>)

ERP dasturiy ta'minotining qo'llanilish sohalari:

- 90% – ERP joriy etish;
- 51% – tashkiliy o'zgarishlarni boshqarish;
- 46% – texnologiyani baholash;
- 41% – biznes jarayonlarini boshqarish yoki reinjining;
- 34% – dasturiy ta'minot tanlovi;
- 32% – amalga oshirilgandan keyin foydani amalga oshirish;
- 25% – raqamli strategiya;
- 25% – loyiha auditi;
- 24% – shartnoma muzokaralari;
- 3% – M&A integratsiyalarida qo'llaniladi.


Biznesni boshqarishda ERP tizimidan foydalanishning kamchiliklari:

- Joriy etish xarajatlarining yuqoriligi – ERP tizimini sotib olish, sozlash, texnik jihozlarni yangilash va xodimlarni o'qitish katta moliyaviy sarmoya talab qiladi.
- Joriy etish jarayonining murakkabligi va uzoq davom etishi – ERP tizimini korxonaga moslashtirish ko'p vaqt oladi. Ba'zan jarayon 6-18 oy davom etadi va bu davrda korxona ish jarayonlarida vaqtinchalik uzilishlar yuzaga kelishi mumkin.
- Xodimlarning moslashishdagi qiyinchiliklari – yangi tizim bilan ishlash ko'nikmasi bo'lmagan xodimlar o'rtasida qarshilik paydo bo'lishi, noto'g'ri ma'lumot kiritish va jarayonlarni sekinlashtirish kabi muammolar kuzatilishi mumkin.
- Texnik nosozliklar va dasturiy xatolarga bog'liqlik – ERP tizimidagi kichik texnik xato ham butun korxona jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Texnik xizmat ko'rsatish muntazam xarajatlarni talab qiladi.
- Kiberxavfsizlikka bo'lgan yuqori talab – korxonaning barcha ma'lumotlari yagona tizimda jamlangani sababli, tizimga kiberhujum bo'lishi katta xavf tug'diradi.
- Moslashuvchanlikning cheklanishi – ba'zi ERP tizimlari korxonaning barcha o'ziga xos jarayonlariga moslashavermaydi. Strukturaviy o'zgarishlar yoki yangi biznes yo'nalishlari qo'shilganda tizimni qayta sozlash yoki kengaytirish murakkablashadi.



Buyers Preferred Features in ERP Systems

Preferred Features in Percentage



(Features in %)

Source: Market.us Scoop • Created with Datawrapper

2-rasm. ERP dasturiy ta'minot xususiyatlari, qo'shimchalar va moslashtirish statistikasi

(Manba: <https://scoop.market.us/erp-software-statistics/>)

So'rov natijalariga ko'ra, xaridorlarning 89% buxgalteriya hisobini ERP tizimida izlayotgan asosiy xususiyat deb bilishadi. Respondentlar, shuningdek, inventarizatsiya va tarqatish (67%), mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) 33% va umumiy texnologiya bilan bog'liq modullarga (21%) qiziqish bildirishdi. Kompaniyalarning atigi 3% standart, tayyor funksionallikka ega ERP tizimlariga tayanadi. Aksariyat ko'pchilik ma'lum darajadagi sozlashni tanlaydi. Moslashtirishga intilayotganlar orasida 33% dan 48% gacha bo'lgan korxonalar o'rtacha darajadagi moslashtirishni talab qiladilar, 10% dan 19% gacha esa shaxsiylashtirilgan ERP yechimlarini aniq so'rashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biznesni boshqarishda ERP tizimidan foydalanish korxonalar faoliyatini kompleks tarzda optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim strategik vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ERP tizimlari korxona bo'limlari o'rtasida integratsiyalashgan axborot almashinuvini yo'lga qo'yib, real vaqt rejimidagi ma'lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini tez va aniq qabul qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, ishlab chiqarish, logistika, moliya va inson resurslarini boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish umumiy xarajatlarning qisqarishi va operatsion samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi. ERP tizimining joriy etilishi bilan bog'liq ayrim kamchiliklar, jumladan, yuqori xarajatlar, xodimlarning moslashishdagi qiyinchiliklari yoki texnik xavflar mavjud bo'lsa-da, to'g'ri rejalashtirilgan va bosqichma-bosqich amalga oshirilgan joriy etish jarayoni ushbu muammolarni samarali bartaraf etishi mumkin.

Takliflar:

1. ERP tizimini joriy etishdan oldin korxonaning mavjud biznes jarayonlarini chuqur tahlil qilish – jarayonlarning xarita (process map) ko'rinishida ishlab chiqilishi, takrorlanuvchi va samarasiz bo'limlar aniqlanishi ERP tizimini to'g'ri moslashtirishga yordam beradi.

2. Korxona ehtiyojlariga mos ERP modulini tanlash – har bir korxona uchun universal tizim mavjud emas. Korxona o'lchami, soha xususiyatlari va strategik maqsadlariga mos modullar tanlansa, joriy etish samaradorligi yuqori bo'ladi.



3. Xodimlar uchun bosqichma-bosqich o'quv dasturlarini tashkil etish – xodimlar ERP tizimi bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi uchun amaliy treninglar, video darsliklar va amaliyot mashg'ulotlari muntazam tashkil etilishi zarur.

4. ERP tizimi uchun kuchli kiberxavfsizlik infratuzilmasini yaratish – ma'lumotlar zaxiralash, ikki bosqichli autentifikatsiya, antivirus va xavfsizlik devori (firewall) tizimlari orqali ma'lumotlar himoyasi kuchaytirilishi lozim.

5. Joriy etish jarayonida bosqichma-bosqich (pilot) yondashuvdan foydalanish – avval kichik bo'limda sinov tariqasida joriy etish, so'ng butun korxonaga kengaytirish xatoliklarni oldindan aniqlashga yordam beradi.

6. ERP tizimini boshqa raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish – IoT, CRM, WMS, Business Intelligence kabi tizimlar bilan ERP platformasining bog'lanishi boshqaruvni yanada samarali va avtomatlashtirilgan qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davenport, T. (2021). Enterprise Systems and the Digital Transformation of Business Management. Boston: Harvard Business Review Press.
2. Sumner, M. (2022). ERP Implementation and Organizational Efficiency: New Approaches. New York: Springer.
3. Shaul, L., & Tauber, D. (2023). "The Role of ERP Systems in Enhancing Competitive Advantage in SMES." International Journal of Information Systems, 18(2), 45-59.
4. Jo'rayev, A. (2021). "Korxona resurslarini boshqarishda ERP tizimlarining ahamiyati." O'zbekiston Iqtisodiy Axborotnomasi, 4(12), 77-84.
5. Qodirov, D. (2022). Raqamli ishlab chiqarish jarayonlarida ERP texnologiyalarining qo'llanilishi. Toshkent: Iqtisodiyot Universiteti Nashriyoti.
6. Karimova, S. (2023). "Ta'minot zanjiri boshqaruvida ERP tizimlarining zamonaviy roli." Logistika va Menejment Jurnal, 3(1), 55-63.
7. Monk, E., & Wagner, B. (2022). Concepts in Enterprise Resource Planning (6th ed.). Boston: Cengage Learning.
8. Omonov, B. (2021). "Korxonalarda raqamli transformatsiya: ERP tizimlarining ustunliklari." Innovatsion Texnologiyalar Jurnal, 2(3), 33-41.
9. Helo, P., & Suorsa, M. (2022). "ERP and Business Process Optimization: Challenges and Prospects." Journal of Digital Business, 7(2), 90-102.
10. Hasanov, U. (2023). Biznes boshqaruvida raqamli tizimlarning integratsiyasi. Toshkent: "Fan va Texnologiya" nashriyoti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
